

Andijon viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-iyul oylarida Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **11726,4 mlrd. so'mni**, o'sish **25,2 %** ni
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **27,1 %** ni
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **75,3 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **21,6 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'iyicha 2018 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda korxonalar tomonidan 11726,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,2 % ni tashkil etdi.

- Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 97,5 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 1,8 foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



davomi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11429,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 97,5 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari

tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 212,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.




davomi

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 8824,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 127,1 %, jami sanoatdagi ulushi esa 75,3 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

1-diagramma



Yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

2-diagramma



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 58,6 % ulushini), Andijon (18,2 %), Honobod shaharlari (4,3 %), Andijon (2,6 %), Shahrixon (2,6 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



davomi

2018 yilning yanvar-iyul oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi va o`sish sur`atlari

3-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo`z (0,4 %), Ulug`nor (0,5 %), Buloqboishi (0,7 %), va Paxtaobod (0,7 %) tumanlariga to`g`ri keladi.




davomi

Shuni ta`kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Andijon (2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 120,5 % ga), Honobod (110,1 % ga) shaharlarida, Asaka (135,7 % ga), Jalaquduq (116,3 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

4-diagramma



**Andijon viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

A.Иброхимов

Aloqa telefoni:

(0371) 230-82-57